

## ХАЛҚАРО ТИЈОРАТ ҲУҚУҚИДА НИЗОЛАРНИ АРБИТРАЈДА ВА БОШҚА АDR ШАКЛЛАРИДА ҲАЛ ҚИЛИШНИНГ О‘ЗИГА ХОСЛИГИ ВА АҲАМИЯТИ

*Ashirov O‘rol Abdirashit o‘g‘li*

*Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi*

*[urolofficial@gmail.com](mailto:urolofficial@gmail.com)*

**Аннотатсия.** Ushbu ilmiy maqolada xalqaro tijorat huquqida vujudga keladigan nizolarni, hozirgi vaqtda keng qo‘llanilib kelinayotgan nizolarni hal etishning muqobil usullari hisoblangan arbitraj, muzokara, mediatsiya orqali hal etishning o‘ziga xosligi va ahamiyati haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, ushbu maqolada nizolarning hal qilishning muqobil usullarining mohiyati, vujudga kelish tarixi, ularning o‘zaro bir-biridan farqlari, afzallilari va kamchiliklari bayon etiladi. Xalqaro tijoriy nizolarni adolatli, tez va samarali hal qilish uchun bir qator samarali usullar va takliflar berib o‘tiladi. Maqolani yozishda Xalqaro tijorat huquqiga oid konvensiyalar, shartnomalar, hamda O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidan normalar keltiriladi.

**Калит so‘zlar:** xalqaro tijorat huquqi, arbitraj, muzokara, mediatsiya, neytral kelishuv, ADR, arbitraj joyi, kollizion normalar.

## УНИКАЛЬНОСТЬ И ВАЖНОСТЬ РАЗРЕШЕНИЯ СПОРОВ В АРБИТРАЖЕ И ДРУГИХ ФОРМАХ АЛЬТЕРНАТИВНОГО РАЗРЕШЕНИЯ СПОРОВ В МЕЖДУНАРОДНОМ КОММЕРЧЕСКОМ ПРАВЕ

**Аннотация.** В данной научной статье говорится об уникальности и важности арбитража, переговоров и медиации, которые в настоящее время широко используются альтернативными методами разрешения споров, возникающих в международном коммерческом праве. Также в данной статье описывается сущность альтернативных методов разрешения конфликтов, история их возникновения, их различия, преимущества и недостатки. Приведен ряд эффективных методов и предложений для справедливого, быстрого и эффективного разрешения международных коммерческих споров. При написании статьи цитируются международные конвенции, соглашения и соглашения коммерческого права, а также нормы законодательства Республики Узбекистан.

**Ключевые слова:** международное коммерческое право, арбитраж, переговоры, медиация, нейтральное соглашение, альтернативное урегулирование споров, место арбитража, коллизия законов.

## THE UNIQUENESS AND IMPORTANCE OF RESOLVING DISPUTES IN ARBITRATION AND OTHER FORMS OF ADR IN INTERNATIONAL COMMERCIAL LAW

**Abstract.** This scientific article talks about the uniqueness and importance of arbitration, negotiation, and mediation, which are currently widely used alternative methods of resolving disputes arising in international commercial law. Also, this article describes the nature of alternative methods of conflict resolution, the history of their emergence, their differences, advantages and disadvantages. A number of effective methods and suggestions for fair, quick and efficient settlement of international commercial disputes are given. When writing the article, international commercial law conventions, agreements, and norms from the legislation of the Republic of Uzbekistan are cited.

**Key words:** international commercial law, arbitration, negotiation, mediation, neutral agreement, ADR, place of arbitration, conflict of laws.

### KIRISH

Bugungi kunda dunyoda tadbirkorlik faoliyati, xalqaro savdo, tovarlar yetkazib berish, har xil xizmatlar ko'rsatish kabi iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanib bormoqda. Tijorat faoliyatini olib boruvchi jismoniy va yuridik shaxslarning soni ham shiddat bilan o'syabdi. Shu bilan bir qatorda tijorat bilan shug'ullanayotgan shaxslar o'rtasida turli xil o'zaro nizolar ham uchramoqda. Nizolashayotgan taraflar ba'zida nizoni hal etish uchun davlat sudlariga murojaat qilishsa, ba'zida nizoni hal qilishning suddan boshqa usullariga murojaat qilishmoqda. Bunday usullarga arbitraj, muzokara, mediatsiya, neytral kelishuv, ekspert xulosasi, beysbol arbitraj kabilar kiradi. ADR (Alternative Dispute Resolution) – boshqacha qilib aytganda, nizolarni hal qilishning muqobil usullari, davlat sudlaridan boshqa nizolarni hal qilishning barcha usullarini o'z ichiga oladi. Ammo ba'zi olimlar ADR tarkibiga arbitrajni kiritishsa, ba'zilar kiritmaydi. Albatta, bu usullarning afzallik va kamchilik tomonlari yetarlicha topiladi. Bugungi kunda xalqaro tijorat huquqidan kelib chiqayotgan nizolarni hal etish uchun tomonlar davlat sudidan ko'ra ko'proq ADRga murojaat qilishmoqda. Ular nima uchun bunday qarorga kelayotganliklari, nizolarni hal qilishning eng yaxshi usuli o'zi qaysi ekanligi haqida maqola davomida ma'lumotlar berib o'tiladi.

### NATIJALAR

#### **Xalqaro tijorat huquqida nizolarni hal qilish usullarining ahamiyati.**

Dunyoda xalqlar o'rtasida o'zaro savdo munosabatlari boshlangandan beri ko'p vaqtlar o'tib ketdi. Ammo tijoriy munosabatlarning xarakteri hisoblangan taraflar o'rtasidagi kelishuv asosida bir-birining huquq va majburiyatlarini belgilab olish, tijoratdan manfaatdor bo'lgan holda foyda olish kabilarning umumiy jihatlari

o'zgarmagan. Tijorat sohasida taraflar o'rtasida vujudga kelayotgan nizolar avval ham mavjud bo'lgan. Ya'ni, savdo aloqalari boshlanibdiki, nizolar ham albatta u bilan birga paydo bo'lgan. Qadimda nizolashayotgan taraflarda hozirda mavjud bo'lgan nizolarni hal qilishning zamonaviy usullari yo'q edi. Ammo muzokara, mediatsiya kabi nizolarni hal etishning usullarining vujudga kelishi qadim o'tmishga borib taqaladi. Chunki, taraflar o'sha vaqtlarda o'zaro ziddiyatlarini xuddi shu kabi usullardan foydalanib yechishga harakat qilishgan. Tijoriy munosabatlar, huquqiy tizimlar rivojlangani sari xalqaro savdo sohasida vujudga kelayotgan nizolarni hal qilishni usullari ham takomillashib bordi. Dunyodagi birinchi arbitraj kelishuvi 1795-yilda Buyuk Britaniya va AQSH o'rtasida tuzilgan. Bu kelishuv 1872-yildagi Alabama nizosini ko'rishda katta rol o'ynagan. [8.]. Nizolarni hal qilishning usullari bundan keyingi davrlardan keyin ham rivojlanishda davom etdi. Ammo XX asrgacha nizolarni hal qilishning muqobil usullarini birontasi mustaqil institut sifatida shakllanmagandi. Nizolarni hal qilishning muqobil usullari jumladan, arbitraj ham XX asrda alohida institut sifatida shakllangan. Bu davrda arbitrajga oid bir qator xalqaro konvensiyalar qabul qilindi. Bular orasida shubhasiz eng muhimi 1958-yilda qabul qilingan Xorijiy arbitraj qarorlarini tan olish va ijroga qaratish to'g'risidagi Nyu-York konvensiyasi hisoblanadi. Bundan tashqari ham bir qancha xalqaro hujjatlar qabul qilingan. Shunday qilib arbitraj va nizolarni hal qilishning boshqa muqobil usullari hozirgi kunga kelib ancha takomillashgan, hamda xalqaro tijorat sohasida vujudga kelayotgan nizolarni hal qilishning eng asosiy usullaridan hisoblanadi. Hozirgi kunda dunyoning turli shaharlarida jumladan: London, Singapur, Nyu-York, Gongkong, Parij, Toshkent va boshqa shaharlarida xalqaro tijorat arbitraj markazlari mavjud.

### **Arbitraj va boshqa ADR shakllarining nizolarni hal qilishdagi o'rni**

Bugungi kunda dunyoda xalqaro huquqning subyektlari o'rtasida iqtisodiy aloqalar tobora rivojlanib bormoqda. Bunday sharoitda har bir tadbirkor zamon sharoitidan kelib chiqqan holda ko'proq foyda olishga intiladi. Tadbirkor, savdogar va boshqalarning asosiy maqsadi albatta, ko'proq foyda olib, kamroq xarajat qilishdir. Ammo dunyoda hech kim turli xil muammolardan, ziddiyatlarda qochib qutula olmaydi. Tadbirkor, savdogarlar ham shu kabi muammolarga duch keladi. Bu kabi vaziyatlarda nizolashayotgan tomonlar turlicha yo'l tutadi. Kimlardir nizolarini hal qilish uchun davlat sudiga murojaat qilsa, boshqalar nizolarni hal qilishning davlat sudlaridan farq qiladigan boshqa shakllari: arbitraj, mediatsiya, muzokara kabilarga murojaat qiladi. Albatta, nima bo'lgan taqdirda ham nizolashayotgan taraflar nizosini hal qilib olishadi. Ammo nizoni hal qilishda vaqtni, mablag'ni tejash tijorat faoliyatni olib borayotgan har bir shaxs uchun muhim. Quyidagi jadvalda hozirga vaqtda nizolarni hal qilishni bir qancha usullarining qiyosiy taqqoslanishi berib o'tilgan:

	Technical Expertise	Time	Costs	Confidentiality	Damage on relationship	Binding effect
Litigation	No	Longest	Very high	No	Greatest	Highest
Arbitration	Yes	Longer	High	Yes	Greater	High
Mediation	Yes	Short	Lowest	Yes	Smallest	Non-binding
Adjudication	Yes	Shortest	Lower	Yes	Neutral	Temporarily

Bu jadvaldan ham ko‘rishimiz nizolarni hal qilishning bir qancha usullari bor bo‘lsada, ularning hammasi ham nizolashayotgan tomonlar uchun birdek foyda olib kelmaydi. Shu sababli ham hozirda ko‘plab tijoratchi tashkilotlar nizolarini hal qilish uchun davlat sudlaridan ko‘ra ko‘proq ADR shakllariga murojaat qilishmoqda. Quyida tijoratchi tashkilotlarning qanday sabablarga ko‘ra bu kabi qarorga kelayotganliklari, arbitraj va boshqa ADR shakllarining xususiyatlari, kamchilik va afzallik tomonlari muhokama qilinadi.

## MUHOKAMA

### Arbitraj va boshqa ADR shakllarining o‘ziga xos xususiyatlari

Dastlab Arbitraj va ADRning boshqa shakllari o‘zi nima ekanligi, hamda nima uchun dunyodagi ko‘plab tashkilotlar, kompaniyalar, jismoniy shaxslar, shuningdek, davlatlar o‘zaro nizolarini hal qilish uchun bu usullarga murojaat qilishayotganligi haqida to‘xtalib o‘tamiz. Arbitraj – xususiy sudlov tizimi bo‘lib, o‘z faoliyatini har qanday sudlardan mustaqil ravishda olib boradi. Arbitrajni nizolashayotgan taraflarning o‘zlari kelishuv asosida tanlashlari mumkin. Arbitraj kelishuvda tomonlar o‘zlari xohlagan arbitrlarni tanlash imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Shuningdek, tomonlar o‘zaro barcha huquq va majburiyatlarini shu kelishuvda ko‘rsatib o‘tishlari kerak. Tomonlar o‘zaro kelishib bo‘lishgandan keyin tanlagan arbitrajlariga murojaat qilishib o‘zaro nizolarini hal qilishlari mumkin. Arbitraj yakunida chiqariladigan hal qiluv qaror tomonlar uchun majburiy bo‘ladi.

Qonunchilikka ko‘ra ham arbitraj mustaqil va o‘zining reglamenti asosida o‘z faoliyatini olib boradi. Shuningdek, u qaysi davlatda tashkil etilgan bo‘lsa o‘sha davlatning milliy qonunchiligiga zid harakat qilmasligi lozim. Misol keltiradigan bo‘lsak, O‘zbekiston Respublikasida ham tijorat arbitrajiga oid “Xalqaro tijorat arbitraji to‘g‘risidagi” qonun qabul qilingan. Ushbu qonunda arbitraj sudining qanday tashkil etilishi, arbitraj kelishuvi nima ekanligi, arbitralar sonini belgilash, hal qiluv qarorini qabul qilish kabi bir qator normalar keltirilgan, hamda albatta bu normalar xalqaro hujjatlar asosida qabul qilingan. [ 1, 2]. Toshkentda faoliyat olib borayotgan xalqaro arbitraj markazi (TIAC) ham ushbu qonun va boshqa xalqaro konvensiya normalari asosida faoliyat olib boradi.

Endi tijorat arbitrajining o'ziga xos xususiyatlari haqida to'xtalib o'tamiz. M.L.Mozes o'zining asarida xalqaro tijorat arbitrajining o'ziga xos xususiyatlari deb quyidagilarni ta'kidlab o'tgan:

- taraflar tomonidan arbitraj kelishuvi yoki arbitraj izohi mavjud bo'lsagina arbitrajga murojaat qilish mumkinligi;
- nizolashayotgan tomonlarning arbitrlarni o'zlari tanlashi;
- arbitraj qarorining taraflar uchun yakuniyligi va majburiyligi;
- arbitrajni nizoni hal qilishda davlat sudlari bilan bevosita hamkorlik qila olishi.

[ 3, 5 ]

Arbitrajning bu xususiyatlari 1985-yilgi UNSITRIAL namunaviy qonunida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Xalqaro tijorat arbitraji to'g'risidagi qonunida alohida normalar shaklida berilgan.

**ADR** – nizolarni hal qilishning muqobil usullari, ba'zi olimlar uni nizolarni hal qilishning boshqa usullari deb ham atashadi. Dunyoning turli davlatlarida jumladan, Yevropada sud va arbitrajdan tashqari boshqa nizolarni hal qilishning barcha shakllarini ADRning tarkibiga kiritishadi. Ammo Amerika Qo'shma Shtatlarida arbitrajni ham ADR tarkibiga kiritishadi. Buning asosiy sababi arbitraj ham xuddi mediatsiya, muzokara kabi nizolarni hal qilishning xususiy tizimi bo'lganligi, shuningdek, ular o'xshash jihatlar bor ekanligida. [ 9, 10 ]

Garchi arbitraj qarorlari majburiy hisoblanib, mediatsiya va muzokara majburiy bo'lmasada ularning umumiy jihatlari bor. ADRda ham xuddi arbitraj singari nizolashayotgan tomonlarning o'zaro kelishuvi mavjud bo'lishi kerak. Mediatsiya va beysbol arbitrajida uchinchi tomon nizolashayotgan tomonlarni huquqiy normalar asosida o'zaro kelishtirishga harakat qiladi. [ 3, 4 ]

Ammo umumiy jihatlari mavjud bo'lsada arbitrajning ADRning boshqa shakllaridan ancha farq qiladigan tomonlari yetarlicha topiladi.

### **Arbitraj va boshqa ADR shakllarining afzallik va kamchiliklari**

Albatta, nizolarni hal qilish usullarining afzallik va kamchilik tomonlari yetarlicha topiladi. Arbitrajning afzallik tomoni shundan iboratki, bu birinchidan arbitraj chiqargan qaror tomonlar uchun majburiy hisoblanadi. Arbitrlarni ham tomonlarning o'zlari tanlashlari mumkin. Arbitraj jarayonida xalqaro tajribaga ega bo'lgan ekspert, mutaxassislarning qatnashish imkoniyati mavjudligini ham afzallik deb aytishimiz mumkin. Arbitrajda ish ko'rish odatda odamlar ishtirokisiz maxfiy tarzda amalga oshiriladi. Shuningdek, agarda arbitraj yakuni bo'yicha arbitraj hal qiluv qarorini tan olishda muammo vujudga kelsa, uni davlat sudlarida tan olish va ijroga qaratish imkoniyati saqlanib qoladi. Bundan tashqari arbitrajning bir qator kamchilik tomonlari ham yo'q emas. Arbitraj jarayonining uzoq muddatga cho'zilib ketishi, ko'pgina holatlarda tarjimon xizmatidan foydalanishga to'g'ri kelib qolishi va sifatli tarjimon topish murakkabligi, nizoni arbitrajning o'zida takroran ko'rishni imkoni

yo'qligi ya'ni apellatsiya shikoyati berib bo'lmasligini kamchilik deb aytishimiz mumkin. [6]

Arbitrajdan tashqari nizolarni hal qilishning boshqa muqobil usullari hisoblangan mediatsiya, muzokara, neytral kelishuv va boshqalarning ham afzallik va kamchilik tomonlari mavjud. Afzallik tononlari quyidagicha agarda nizoni yakuni bo'yicha taraflar o'zaro kelisha olmasa sudga murojaat qilish huquqi saqlanib qoladi. Bundan tashqari nizoni qisqa vaqt ichida ko'rish, shuningdek, narxining ham arzonligi afzallik tomonidir. Kamchilik tomoniga kelsak, mediatsiya, muzokara va boshqalar bo'yicha nizoni hal qilishga kelishilgan bo'lsada yakuniy kelishuvning tomonlar uchun majburiy emasligi, yakuniy kelishuvning tomonlar uchun oxirgi yechim emasligini aytishimiz mumkin. [3]

### XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qiladigan bo'lsak, tahlil qilganimizdek arbitraj va boshqa ADR shakllarining bir qator o'ziga xos xususiyatlar, afzallik va kamchilik tomonlari mavjud. Nizolashayotgan tomonlar albatta o'zlari uchun maqbul bo'lgan nizoni hal qilish turini tanlay olishi muhim ahamiyatga ega. Chunki har bir tadbirkor, savdogar iloji boricha nizolashmaslikka, nizolashganda esa katta zarar ko'rmaslikka intiladi. Buning uchun nizoni hal qilishning to'g'ri usulini tanlash zarur.

Umumiy ushbu maqolada keltirib o'tilgan va amaliyotga ko'rilgan ishlar bo'yicha taklif berishimiz mumkinki, nizolashayotgan taraflar avvalo vujudga kelgan nizosini muzokara orqali hal qilishilar maqsadga muvofiq. Chunki bu mablag' tejash imkoni beradi. Agarda muzokarada kelishuvga erishib bo'lmasa keyin mediatsiyaga murojaat qilish lozim. Mediatsiya arbitraj yoki davlat sudlariga qaraganda ancha arzonroq hisoblanadi. Mediatsiyada ham kelishuvga erishib bo'lmasa, unday bo'lsa arbitrajga murojaat qilish to'g'ri bo'ladi.

#### Foydalanilgan manbalar:

#### Qonunchilik normalari:

1. O'zbekiston Respublikasining "Xalqaro tijorat arbitraji to'g'risida"gi qonuni, O'RQ-674, Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 17.02.2021-yil, 03/21/674/0123-son.
2. UNCITRAL Model Law on International Commercial Arbitration (1985; with 2006 amendments).

#### Adabiyotlar:

3. Mozes M.L. (2020) Xalqaro tijorat arbitraji tamoyillari va amaliyoti. Uchinchi nashr. Toshkent: Lesson Press (ingliz tilidan o'zbek tiliga TDYU xalqaro xususiy huquq kafedrasida o'qituvchilari tomonidan tarjima qilingan).
4. Murray C., Holloway D. (2012) Schmitthoffs Export Trade: The Law and Practice of International Trade. 12th edn. London: Sweet & Maxwell.

5. Born, G.B. (2021) International Commercial Arbitration. Vol. I. 3rd edn. Alphen aan den Rijn, The Netherlands: Wolters Kluwer.
6. Lew J., Mistelis L., Kroll S. (2003) Comparative International Commercial Arbitration. Kluwer Law International.

**Jurnallar va Vebsaytlar:**

7. <https://academic.oup.com/book/32794/chapterabstract/274541109?redirectedFrom=fulltext> . Thomas Schultz. Thomas Grant.
8. A Brief Primer on the History of Arbitration. - Daniel Centner. Megan Ford.
9. <https://www.undp.org/sites/g/files/zskgke326/files/migration/ge/5bc541dfd5f0e74c34a21543b61bbdf9acc849e04e8bbf8f18262be3f31fb5ea.pdf>
10. Mediation and Arbitration for Resolving Disputes. Project Document of United Nations Development Programme.